

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI PEDAGOGIK MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Abdullayeva Nasibaxon Jo‘rayevna
Andijon davlat pedagogika instituti professori
Pedagogika fanlari doktori (DSc)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19455775>

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga oid bo‘lgan muhim sifatlarni rivojlantirish, pedagog madaniyati, ma’naviyati hamda mas’uliyatini shakllantirishga oid ta’limiy manbaalarni mazmunan boyitish va takomillashtirishga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagog, kompetensiya, kasbiy faoliyat, model, ta’lim-tarbiya, uzluksiz ta’lim, tamoyillar, mas’uliyat, individual rivojlanish, kasbiy etika.

Аннотация: В данной статье представлена информация по обогащению и совершенствованию образовательных ресурсов, связанных с развитием важных профессиональных качеств будущих учителей в современных условиях, формированием педагогической культуры, духовности и ответственности.

Ключевые слова: Педагог, компетентность, профессиональная деятельность, модель, образование, непрерывное образование, принципы, ответственность, индивидуальное развитие, профессиональная этика.

Annotation: This article provides information on the content enrichment and improvement of educational resources related to the development of important professional qualities of future teachers in modern conditions, the formation of pedagogic culture, spirituality and responsibility.

Keywords: Pedagogue, competence, professional activity, model, education, continuous education, principles, responsibility, individual development, professional ethics.

Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangicha mexanizmlari, ustuvor ta’lim tamoyillariga muvofiq didaktik ta’minoti yaratilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy amaliyotga tayyorlashda ular uchun qulay va innovatsion o‘quv muhitini yaratishning ta’sirchan usullarini qo‘llash orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirib borish dolzarb sanalmoqda. YUNESKO tomonidan 1966 yildayoq o‘zining “O‘qituvchilarning maqomi to‘g‘risidagi tavsiyalari”da pedagog madaniyati va kasb etikasi tamoyillarini belgilash talabini kiritilgan. Bu tamoyillar mutaxassisning obro‘cini yuksaltirish bilan bir qatorda uning kasbiy burchlarini yuqori darajada xis qilishlarini ta’minlash imkonini berishi ta’kidlangan.[1] Binobarin, zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga oid bo‘lgan muhim sifatlarni rivojlantirish, pedagog madaniyati, ma’naviyati hamda mas’uliyatini shakllantirishga oid ta’limiy manbaalarni mazmunan boyitish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mas’uliyatni shaxs omili sifatida B.G.Saxarova[2] yosh davrlari buyicha mas’uliyatni o‘rganishda (deviant xulqli) o‘smirlik davrida muammoning turli jihatlari va xususiyatlarini O.Tenyayeva[3] o‘rgangan. Uning fikricha ma’suliyat insonning o‘z tomonidan maqbul bo‘lmagan xatti-harakatlariga javob berish zaruriyatidir.

Talabalik davri uchun ko‘proq ijtimoiy mas’uliyatning shakllanib borishi xarakteril xususiyatlardandir. O‘qish davrida shaxsning o‘z oldiga talabni to‘g‘ri qo‘yishi baln bog‘liq ravishda mas’uliyat namoyon bo‘lib boradi. Chunki, ta’lim olish jarayonida talaba bir qator ijtimoiy

topshiriqlarni bajarishiga to‘g‘ri keladi. Shu asnoda bo‘lajak o‘qituvchi jamiyat oldida kasb nuqtai-nazaridan mas’uliyat xissini sezib boradi va faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishga erisha oladi.

Shu sababli, professor-o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatlarini yanada boyitish, kerakli sharoitlar yaratib berish, ayni zamonda kasbiy kompetentlikni va pedagogik mas’uliyatning asl mohiyatini ochib beradigan progress konsepsiyalarni ilmiy jihatdan asoslangan poydevorini yaratish davr taqazosi bo‘lmoqda.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya va uni amalga oshiruvchi pedagog ham zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanib borishi kerak. Faoliyati to‘g‘ri yo‘naltirilgan har qanday bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik jarayonda egallagan bilim va tajribalari orqali kasb sirlarini mukammal egallab, takomillashib boradi.

Izlanish natijasida olimlarimiz pedagoglarning uzluksiz, tizimli samarali faoliyati uchun interfaol yondashuvlarni ilmiy asoslab berganlar. Ular tadqiqotlar natijasida bunday usullarni bir qator modellarini tadbiq etishni belgilab bergan. Modelda pedagogning faoliyatiga refleksiv yondashuvi mexanizmlari va har bir jarayonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar keltiriladi. Bir bosqichda bajarilishi shart bo‘lgan vazifalarni samarali yechim topishi, keyingi bosqichga o‘tish uchun imkoniyat yaratadi.

Izlanishlarimiz natijasida biz kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mas’uliyatni shakllantirishda pedagoglar o‘zining “Individual rivojlanish dasturi”ni yaratish va u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur degan xulosaga keldik. Chunki, bu dastur bo‘lajak o‘qituvchilarning “Harakatlar strategiyasi”dir. Bizning nazarimizda “Individual rivojlanish dasturi” ni har bir pedagog quyidagi jadval asosida tahlil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz keltirgan quyidagi jadvalda bo‘lg‘uvchi pedagoglar “Individual rivojlanish”da o‘zining kasbiy kompetentlik darajasi xolatini, rivojlantirish usullari, metodlari va vositalar orqali uni takomillashtirishni, natijasi yuzasidan bilim va sifat samaradorligida oqsab qolayotganligini taftish qilishi lozim. Bunda qo‘yilgan muddat ham asosiy muhim sanaladi. O‘z vaqtida bartaraf etilmagan kamchiliklar bir qator pedagogikka muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Билим, малака ва шахсий сифатлар	Мавжуд жаража	Ривожлантирувчи усул ва воситалар	Компетент сифатлари ни шакллан. ва ривожлан. мuddat	Натижа
Педагогик билимлар				
Психологик билимлар				
Мутахассислик билимлар				
Дидактик малакалар				
Рухиятнинг касбий аҳамиятга эга хусусиятлари ва шахсий сифатлар				
Ўз-ўзини ривожлантириш учун топшириқлар				

Bo‘lajak o‘qituvchilarning “Individual rivojlanish dasturi”

Darhaqiqat, o’qituvchilik kasbini tanlagan har bir inson milliy va umuminsoniy qadriyatlariga nisbatan cheksiz hurmatda bo’lishi, o’z millatining pedagogik, tarixiy, milliy, diniy, badiiy merosini yaxshi o’zlashtirgan holda faoliyatiga faol tatbiq eta olishi zarur. Zero, milliy pedagogikamizda o’qituvchining pedagogik mukammalligiga erishishi o’zida aks ettiruvchi ma’naviy qadriyatlar o’z ifodasini topgan. Aksiologiy yondashuvlarni o’rganish orqali bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari yanada rivojlanib, pedagogik mas’uliyati ortib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуллаева Н.Ж. Бўлажак ўқитувчиларда касбий масъулиятни шакллантириш педагогик муаммо сифатида. International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
2. Арламов, А. А. Методологические ориентиры воспитания личности гражданина России / А. А. Арламов // Педагогика. – 2010.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования//Высшее образование сегодня. 2003 № 5 С. 34-42
4. Равен Ж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. М., 2002 С- 258.
5. Стратегия модернизации содержания общего образования: Материалы для разработки документов по обновлению общего образования. М., 2001.
6. Ожегова С.И. Словарь русского языка. М., 1990. 916 с.
7. Кузьмина Н.В.Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высш.шк., 1990. С.89-90
8. Краткая философская энциклопедия. – М. : Прогресс ; Энциклопедия, 1994.
9. Муслимов Н.А., Каримова Н. Касб таълими ўқитувчиларининг амалий компетентлигини шакллантириш 2 технологияси. – Т.: «Иқтисодиёт», 2012.